

OILAVIY NIZOLARDA BOLALAR MANFAATLARINI HIMOYA QILISH: SUD AMALIYOTI VA XALQARO TAJRIBA

*Toishkent sha'xar fuqarolik iishlari bўйича Учтепа туманлараро
судининг судьяси Худайбердиева Хабиба Валиевна*

Annotatsiya: Ushbu maqola oilaviy nizolarda bolalar manfaatlarini himoya qilish masalalariga bag‘ishlangan. Xalqaro va milliy huquqiy normalar tahlil qilinib, sud amaliyotidagi muhim jihatlar va muammolar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, AQSh, Shvetsiya kabi mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan. Maqola bolalar manfaatlarini ta'minlashning samarali usullarini taklif etadi, jumladan, mediatsiya instituti va oilaviy maslahatchilar xizmatidan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Абстрактный: В данной статье рассматриваются вопросы защиты интересов детей в семейных спорах. Проведен анализ международных и национальных правовых норм, рассмотрены ключевые аспекты и проблемы судебной практики. Также изучен передовой опыт таких стран, как США и Швеция. Статья предлагает эффективные методы обеспечения интересов детей, включая рекомендации по использованию института медиации и услуг семейных консультантов.

Annotation: This article addresses the issues of protecting children's interests in family disputes. It analyzes international and national legal norms and examines key aspects and challenges of judicial practice. The advanced experiences of countries like the USA and Sweden are also studied. The article suggests effective methods for ensuring children's welfare, including recommendations on utilizing mediation institutions and family counseling services.

Kalit so‘zlar: Oilaviy nizolar, bolalar manfaatlari, sud amaliyoti, mediatsiya, xalqaro tajriba, psixologik ekspertiza, huquqiy himoya.

Семейные споры, интересы детей, судебная практика, медиация, международный опыт, психологическая экспертиза, правовая защита.

Family disputes, children's interests, judicial practice, mediation, international experience, psychological expertise, legal protection.

Oilaviy nizolar jamiyatda keng tarqalgan muammolardan biridir. Ularning oqibatlari eng avvalo, bolalar manfaatlariga zarar yetkazadi. Dunyo tajribasida bu masalaga alohida e’tibor berilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda oilaviy nizolarda bolalar manfaatlarini himoya qilishga doir muammolar saqlanib qolmoqda. Bolalar manfaatlarini himoya qilish masalasi ko‘p hollarda ota-onalar o‘rtasidagi nizolar soyasida qolib ketadi. Sud amaliyotida shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda, oilaviy

nizolarda bolalarning ruhiy holati va ularning o‘z fikrini ifoda etish imkoniyatlari yetarlicha e’tiborga olinmayotganiga guvoh bo‘lish mumkin. O‘zbekiston sud amaliyotida bu muammolarni hal qilishda ayrim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, jarayonning murakkabligi, mavjud mexanizmlarning kamchiliklari va sudyalarning professional yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola tajribaga asoslangan holda, oilaviy nizolarda bolalarning manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chuqur tahlil va aniq tavsiyalarni o‘z ichiga olib, xalqaro va milliy tajriba tahlil qilinib, bolalar huquqlarini himoya qilishning dolzarb muammolari va yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Bolalar manfaatlarini himoya qilish xalqaro va milliy huquqiy normalar orqali kafolatlanadi. Bunga misol sifatida quyidagilarni misol qilsak bo’ladi.

Bola huquqlarini himoya qilishga oid asosiy xalqaro hujatlardan biri "Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya" bo‘lib, u 1989-yil qabul qilingan. Ushbu konvensiyaga ko‘ra, bolalarning manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish zarurligi keltrilgan. Yevropa inson huquqlari konvensiyasini esa, oilaviy hayotni hurmat qilish huquqini himoya qiladi.

Milliy qonunchilikda esa quyidagilar asosiy o‘rinni egallaydi. Bular:

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi: Vasiylik, homiylik va ota-onalik huquqlari bo‘yicha normalarni belgilaydi. Hamda ushbu sohada vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (2008-yil): Bola manfaatlarini himoya qilishning umumiy qoidalarini o‘z ichiga oladi. Qonunning asosiy maqsadi – bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni kafolatlash, ularning normal hayot sharoitlarini ta’minlash, shuningdek, tarbiya va rivojlanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratishdir.

Shuningdek, G‘. Shoumarov tahriri ostidagi “Oila psixologiyasi” kitobida bolalarning psixologik farovonligi oilaviy nizolardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirlanishi ta’kidlangan.

Sud amaliyotida dolzarb masalalar ba’zi kamchiliklar mavjud. Bunga misol sifatida quyidagilarni olish mumkin. Bolalar fikrini tinglash: Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 12-moddasiga binoan, bola o‘z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega. Biroq O‘zbekistonda bu jarayon amaliyotda yetarlicha qo‘llanmaydi.

Psixologik ekspertiza: Oilaviy nizolarda bolalar manfaatlarini aniqlash uchun psixologik ekspertizalar talab etiladi, ammo bu xizmatlarning sifati va qamrovi chegaralangan. Ya’ni bolani kim bilan yashashi to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan paytda sud psixologik ekspertiza tayinlaydi. Ekspertiza davomida bolaning ota yoki ona bilan bo‘lgan aloqalari, hissiy bog‘lanishlari va ruhiy holati aniq baholanishi, yuzaki qaralmasligi kerak.

O'zbekistondagi sudlar tajribasida, masalan, Farg'on'a viloyati sudi tomonidan 2023-yilda ko'rib chiqilgan nizoda, ota-onalar o'rtaсидаги mojarolar bolalarning hissiy holatiga salbiy ta'sir qilgani aniqlangan va psixologik ekspertiza orqali bola manfaatlarini himoya qilishga harakat qilingan. Lekin, sudda bolalarning fikrini eshitish va psixologik xulosalarni tahlil qilishda ba'zi cheklovlar mavjud edi. Ushbu misollar O'zbekiston sud amaliyotida bolalar manfaatlarini himoya qilishda duch kelinayotgan ba'zi kamchiliklarni ko'rsatadi.

Ushbu munosabatlarni chet el tajribasi bipan ko'rib chiqamiz. AQSh tajribasiga ko'ra, AQShda oilaviy nizolarni hal qilishda bolalar manfaatlarini himoya qilish uchun maxsus psixologik ekspertizalar va mediatorlar faol qo'llaniladi. Sudlar bolalar manfaatlarini hisobga olishda aniq va qat'iy qarorlar qabul qiladi.

Shvetsiya modelida esa, oilaviy nizolarni sudgacha hal qilish uchun maxsus oilaviy maslahatchilar jalb etiladi. Bu usul bolalarning ruhiy holatini inobatga olishga va nizolarni kamroq travmatik tarzda hal qilishga yordam beradi.

O'zbekistonda ham mediatsiya institutining joriy etilishi va suddan tashqari jarayonlarni kengaytirish zarurati mavjud. Munira Sayfiddinovna Usmonovaning "Oilaviy nizolarda mediatsiyani qo'llash" haqidagi maqolasida mediatsiya va boshqa alternativ nizolarni hal qilish usullarining samaradorligi haqida so'z yuritiladi. Mamlakatimizda mediatsiyaga doir islohatlar va rivojlantirishga oid qadamlar qo'yilayotgan bo'lsa-da, bu institut hali ham nisbatan yangi va rivojlanish bosqichida.

O'zbekistonda oilaviy nizolarni hal qilishda bolalar manfaatlarini himoya qilishning samaradorligini oshirish uchun bir qator islohotlar zarur. O'zbekiston Oila kodeksi va boshqa huquqiy normalarda bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan asoslar mavjud bo'lsa-da, sud amaliyotida ularga to'liq e'tibor berilmayapti. Shu sababli, bolalar manfaatlarini himoya qilishda quyidagi islohotlarni amalga oshirish zarur. **Birinchidan**, mediatsiya institutini kengaytirish, oilaviy nizolarni sudgacha hal qilish uchun mediatsiya institutini kengaytirish va maxsus mediatorlarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish. **Ikkinchidan**, psixologik ekspertiza va sud jarayonlarida bolalar fikrini tinglash, sud jarayonlarida bolalar fikrini eshitish va psixologik ekspertizalardan foydalanishning qamrovini kengaytirish. **Uchinchidan**, bolalar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha maxsus mutaxassislar, sudlar va huquqiy organlarda bolalar manfaatlarini himoya qilish uchun maxsus mutaxassislar tayyorlash.

Oilaviy nizolarda bolalar manfaatlarini himoya qilish masalasi nafaqat yuridik, balki psixologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega. Maqolada ko'rsatilganidek, O'zbekistonda ushbu muammoning yechimi uchun mavjud imkoniyatlar mavjud, biroq amaliyotda ularning to'liq amalga oshirilmasligi bolalar manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Xalqaro tajriba va milliy qonunchilik o'rtaSIDA uyg'unlikni ta'minlash, bolalar manfaatlarini himoya qilishda samarali natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu o'rinda quyidagilarni taklif qilish maqsadga muvofiqdir. **Birinchidan**, oilaviy nizolarda mediatsiya va murosaga erishish usullarini kengaytirish. Mediatsiya, oilaviy nizolarni tez va samarali hal qilishning muhim vositasi sifatida rivojlantirilishi kerak. **Ikkinchidan**, bolalar fikrini eshitish va psixologik ekspertizalarni majburiy qilish. Sud jarayonlarida bolalar fikrini tinglashni ta'minlash va ularni himoya qilish uchun psixologik ekspertizalarni kengaytirish zarur. **Uchinchidan**, maxsus sudlar va mutaxassislar tayyorlash. Bolalar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha maxsus sudlar va mutaxassislarini tayyorlash, sud jarayonlarida ular ishtirokini ta'minlash. **To'rtinchidan**, xalqaro tajriba asosida qonunlarni takomillashtirish. O'zbekiston qonunchiligidagi xalqaro tajribaga asoslangan islohotlarni amalga oshirish va bolalar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan huquqiy normativ hujjatlarni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (1989-yil).
2. G'. Shoumarov tahriri ostida. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
3. Usmonova Munira Sayfiddinovna. Oilaviy nizolarda farzand va ota-onalar munosabatlari. – Elektron manba: ppmedu.jdpu.uz.
4. Oilaviy nizolarda mediatsiyani qo'llash. – Elektron manba: huquqburch.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (24.04.1998-yil, o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
6. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (07.01.2008-yil, № ZRU-140).
7. Evropskiy sud po pravam cheloveka. Evropa inson huquqlari konvensiyasi (1950-yil). Strasburg: Rada Yevropa.